O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2022 - yil 10 - oktabr 362-9-0-Q/22 Sirdaryo viloyati hokimligi

Sirdaryo viloyati “Toza hudud” DUKga “Chiqindi yig‘ish punktlari” qurish uchun, Yangiyer shahar hududidan davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga yer uchastkalari ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-iyuldagi “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasida shaharlarni rivojlantirish loyihalarini tayyorlashni moliyalashtirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 426-sonli va 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy Reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qarorlari asosida hamda yer ajratish materiallari vakolatli organlar ijobiy xulosalari bilan kelishilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5- va 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 10-va 25-moddalariga muvofiq**, qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va Tashqi savdo vazirligining 2021-yil 3-dekabrdagi 80-47-12798-sonli xati qanoatlantirilsin hamda viloyatdagi tegishli tashkilot va korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati “Toza hudud” DUKga, “Chiqindi yig‘ish punktlari” qurish uchun Yangiyer shahar hududining shahar hokimligi zaxira yer fondidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan davlat va jamoat ehtiyoji uchun har biriga 0,0132 gektardan 18 ta yer uchastkalariga jami 0,2376 gektar yer maydonini, mahalla fuqarolar yig‘inlari va unikal lot raqamlari bo‘yicha ilovaga

muvofiq doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. Sirdaryo viloyati “Toza hudud” DUK (Y.Saidbekov)ga:

“Chiqindi yig‘ish punktlari” qurilishi bo‘yicha belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazish hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorini 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish bosh boshqarmasi hamda “O‘zGAShKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari A.Karimov, V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **G'.Mirzayev**

Sirdaryo viloyat hokimining
2022 yil 10 oktabrdagi
362-9-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati “Toza hudud” DUKga “Chiqindi yig‘ish punktlari” qurish uchun Yangiyer shahar hududidan davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga ajratilayotgan yer uchastkalari RO‘YXATI

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yer uchastkasi manzili	Umumiy yer maydoni, (ga)	Yer uchastkasini: ajratish maqsadi	Yer uchastkasining “YERELEKTRON” AATdagi unikal lot raqami
1	Yangiyer shahar	A.Jomiy MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16108
2	Yangiyer shahar	A.Jomiy MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16112
3	Yangiyer shahar	Davlatobod MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16113
4	Yangiyer shahar	Davlatobod MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16114
5	Yangiyer shahar	Davlatobod MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16116
6	Yangiyer shahar	Ma’rifat MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16117
7	Yangiyer shahar	Ma’rifat MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16118
8	Yangiyer shahar	Navro‘zobod MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16120
9	Yangiyer shahar	Navro‘zobod MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16121
10	Yangiyer shahar	Navro‘zobod MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16123
11	Yangiyer shahar	Navro‘zobod MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16124
12	Yangiyer shahar	T.Malik MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16125
13	Yangiyer shahar	T.Malik MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16126
14	Yangiyer shahar	T.Malik MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16127

15	Yangiyer shahar	Shodiyona MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16128
16	Yangiyer shahar	Shodiyona MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16129
17	Yangiyer shahar	Shukrona MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16130
18	Yangiyer shahar	Shukrona MFY	0,0132	Chiqindi yig‘ish punkti	Y-1724413/B-16131
	Shahar bo‘yicha jami		**0,2376**		